

CONTENT OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL AND MATHEMATICAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

M.J. Saidova –

*BuxDUPI Starting Teaching Theory
va metodikasi kafedrasi dotsenti p.f.f.d (PhD),
mohinur.saidova2016@mail.ru*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy va metodik kompetentligini shakllantirish mazmuni, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish shart-sharoitlari va mezonlari mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, metodik kompetentlik, bilim, ko'ninkma, malaka, nazariy bilim, tashkiliy- rag'batlantiruvchi, jarayonli, integrativ, kognitiv

Dunyoda ta'lim sivilizatsiyasi va insoniyatning yaxlit barqaror taraqqiyoti negizida bilim olishdan faoliyatli-kompetentli ta'lim paradigmasiga o'tish, jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalariga mos, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabni tobora oshib borishiga olib keldi. Globallashuv kontekstida oliy ta'lim sifati mamlakatning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlab beradi va "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish" [5, 48-b], bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida "boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida samarali o'quv jarayonini tashkil etish" muammosi alohida dolzarblik kasb etdi.

Jahonda oliy ta'limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvini ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarning kvaziprofessional faoliyatga tayyorlashning metodik, elektron ta'lim muhitida tahsil olishning axborot-kommunikatsion ta'minotini, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini orttirish sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim tendentsiyalariga muvofiq kompetentsiyaviy yondoshuv asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining jahon standartlari darajasida o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashga qodir, ijtimoiy va kasbiy mobil, mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharoitlarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar doimiy o'zgarib borayotgan bir paytda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o'qitish sifatini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini kompetentsiyaviy yondoshuv asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun o'quvchi-talabalarni uzluksiz ta'lim bosqichlarida turli sohalar bo'yicha egallagan bilimlarni kundalik hayotda amaliy qo'llashga o'rgatish orqali ularda kasbiy ko'ninkma va malakalarni hosil qilish kerak bo'ladi. Bugungi globallashuv davrida ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchi-talabalarga nafaqat bilim berish hamda egallagan bilimlari

asosida ko'nikma va malakalar hosil qilish, balki ularni amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat. Bu barcha fanlarni o'qitishda kompetent yondashuvni joriy etish vazifasini o'rta qo'ydi.

Malaka tushunchasining "Pedagogika entsiklopediyasi"dagi ta'rifiga ko'ra, "malaka (arabcha: qobiliyat, iste'dod; xususiyat, odat) – kasbni, ishini yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, ko'nikma, mahorat; o'quvchi yoki talabada muayyan o'quv material va kasbni chuqur o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan avtomatlashgan mahorat.

Bilim – ob'ektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, ma'rifiy, harbiy va b.) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmui; ilm.

Bilim – kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi.

Ko'nikma – biror ishda orttirilgan mahorat, malaka [6. 22-b].

Ko'nikma – insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.

Malaka - psixologiyada muayyan kasb ishini yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan mahorat. Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda va mashg'ulotlarning o'zida o'qitish amaliyotida foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash» to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-tsentabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi 637-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining «Ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish mezonlarini tasdiqlash» to'g'risida 2019-yil 16-dekabr, 16—sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevral, Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi, 22-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr, «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 997-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr, «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 4884-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr, «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 6108-sonli Farmoni" da ko'rsatib o'tilgandek har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga ta'limda yangicha yondashuvni olib kirish, metodik, ilmiy, innovatsion va zamonaviy talablarga javob berish kabi muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu maqsadlar boshlang'ich ta'lim uchun xos bo'g'inlarni ajratish imkonini beradiki, bu bo'g'inlar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darsliklarda ta'limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda, biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematikani o'qitish metodikasi bo'yicha umumiy psixologik-pedagogik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang'ich ta'lim sohasida ma'lum bilim va o'quvlarni egallash va bolalarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirishi kiradi.

Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang'ich sinflar o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatidan ajralgan holda qaralishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi maktab matematika kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir, yoki matematikadan tayyorligidir. Matematikadan boshlang'ich ta'limning bu ikki jihati (aspekti) (boshlang'ich ta'limning tarkibiy qismi va matematika oldi tayyorgarligi) metodikada o'zining munosib aksini topishi lozim.


Matematikadan boshlang'ich ta'lim - tarbiyaviy vazifalari nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu o'zicha ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani va matematika fani xususiyatini o'z ichiga metodologik o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) oldi. Biroq, birgina nazariy bilimlarning o'zi, har qanday boshqa faoliyatga tayyorlanishdagi kabi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng yaroqli usullarini tiklash va qo'llanishini bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarurdir.

Ayni shu boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish va hisobga olish, ayniqsa muhimdir. Kelgusidagi amaliy faoliyat uchun xususiy, amaliy, o'quvchilar mustaqil ish natijasida xususan, seminar, amaliy va laboratoriya ishlarida matematikani o'qitish metodikasida bajariladigan ishlar orqali egallanadi.

Metodik tayyorgarlikning maqsadi sifatida matematika o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxsiy va metodik rivojlanishini amalga oshirish uchun layoqatli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodkor va zamonaviy shaxsini shakllantirish namoyon bo'ladi.


Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish tizimi – shaxsiy va kasbiy ahamiyatga molik xususiyatlar, shuningdek, umummadaniy (estetik, falsafiy, didaktik, tarbiyaviy), ilm-fanga oid (matematik, nazariy, metodik), psixologik- pedagogik va kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan milliy dastur talablari asosida innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda foydalana olish metodikalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oluvchi murakkab dinamik tizim.

Bugungi kun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish quyidagi shart-sharoitlarga bevosita bog'liq: ijtimoiy-shaxsiy, umumkasbiy, kasbiy tashkiliy, metodik-texnik, pedagogik-psixologik faoliyat (1-rasm).



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning zamonaviy shart-sharoitlari

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining matematika o'qitish jarayonidagi diversifikatsion faoliyati va kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha quyidagi mezonlar aniqlandi: Tashkiliy- rag'batlantiruvchi, jarayonli, integrativ, kognitiv.



2-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy tayyorgarligini takomillashtirish mezonlari.

Tashkiliy -rag'batlantiruvchi- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida rivojlanish to'g'risida signal va istakning mavjudligi, mavjud muhit, maqsad va rivojlanishga nisbatan motivatsiyaning borligi, istakka nisbatan harakat va qoniqarli natijaga erishish.

Jarayonli- kommunikativ ko'nikmalar-ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan pedagogik muloqotni tashkil qilish mahorati, boshlang'ich sinf o'quvchilari, ota-onalar, hamkasblar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosa-batlar o'rnatish layoqati, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun turli xil o'rgatuvchi dasturlarda topshiriqlar ifodalanishining tushunarliklik darajasini tahlil qilish layoqati, agar o'quvchi berilgan topshiriqni bajarishga qiynalsa, topshiriqni sodda shaklda qayta ifodalash qobiliyati, ijodiy izlanish muhitini yaratish mahorati, boshlang'ich sinf o'quvchilari reaksiyasini bashoratlash, hissiy munosabat o'rnatish layoqati;

Integrativ- integrativ-shaxsiy mezonlar: integrativ-shaxsiy – matematika fanini boshqa fanlar bilan integratsiya va inkorporatsiyalash qobiliyati, ijodiy salohiyat, kasbiy o'sishga intilish xususiyatlarining tashkil toptirilishi.

Kognitiv- talabalarining psixologik-pedagogik bilimlari-boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va individual, psixofiziologik xususiyatlarini, o'quv jarayonini tashkil qilish shakl, metod va vositalarini, didaktik, masofaviy tajribalar orqali o'quvchilarni tashxislashning asosiy metodikasini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni bilishi lozim.

Bizning fikrimizcha mazkur shart-sharoitlar va mezonlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining matematik kompetentligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash» to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevral, Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi, 22-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 997-sonli Qarori.
5. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 p.
6. Tashpulatova M.I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Diss. avtoreferat. 2019 y 22-b.
7. Saidova M.J. Ta'limda multimedia texnologiyalardan foydalanish. 2022. 295-b
8. Saidova M. EDUCATE STUDENTS BY SOLVING TEXTUAL PROBLEMS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
9. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
10. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. An integrated approach to the use of pedagogical technologies in primary school mathematics// Middle European Scientific Bulletin. Volume 8, January 2021, 174
11. Saidova Mohinur Jonpulatovna, Ibrahimova Mohichehra Furkat Qizi. Improve Pupils' Knowledge and Personal Qualities Through Educational Tools in Elementary Mathematics Classes. Middle European Scientific Bulletin Volume 8, January 2021, 173
12. M.J. Saidova. Directions and Content of Educational Information European journal of issn 2660-9630. Vol. 12 (2021)
13. Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Karimova Kamola Komilqizi. The Use of Information Technology in Solving Problems in Mathematics Lessons in Elementary School. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). Vol. 12 (2021)
14. M.J. Saidova. The Use of Various Forms in Teaching Future Primary School Teachers Through Distance Learning. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (EJHSS) Vol. 5 (2022): EJHSS. 103–107.
15. M.J. Saidova. Teaching future primary school teachers to pass mathematics lessons through innovative technologies. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). V-5. 254-261
16. SM Jonpolatovna Teaching Integration Tasks Based on Information Technology in Primary School Mathematics. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 6, 21-26
17. SM Jonpo'latovna, FM Amonjonovna First Improving the quality of education through the use of individual assignments in classroom mathematics lessons. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 6, 13-20
18. MJ Saidova Directions and Content of Educational Information. EUROPEAN JOURNAL OF ISSN 2660-9630 12 (12), 210-218
19. SM Jonpolatovna, US Gulomovna Effectiveness of the Use of Information Technologies in Fulfilling Creative Tasks in Primary School Mathematics. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 11, 26-31